

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH.

Turdiyev Namozbek Baxriddin o‘g‘li
Jizzax Davlat Pedagogika Unuversiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion metodlardan foydalanish mohiyati ochib berilgan, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, innovatsiya, metod, texnologiya, modellashtirish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье выделена важность использования инновационных методов в подготовке будущих педагогов общеобразовательной школы, представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: педагог, инновации, метод, технология, моделирование.

ABSTRACT

In this article, the importance of using innovative methods in the training of future pedagogues in general secondary schools has been increased, suggestions and recommendations have been presented.

Keywords: pedagogue, innovation, method, technology, modeling.

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, «Ilm, ma’rifat va raqamli

iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da innovatsion g‘oyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.²⁹

Jahon miqyosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda e‘tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi globallashtirish davr talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mavjud ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Bunda kunda ta‘lim sifati va samaradorligini yuqori darajalarga oshirishda samarali hisoblangan pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish, ta‘lim tizimi mazmunini samarali intellektuallashtirish negizida o‘qitish jarayonini innovatsiyalashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, zamonaviy mutaxassislar tayyorlash uchun ta‘limni optimallashtirish shakllari va ularning metodik ta‘minoti bo‘yicha innovatsion metod va texnologiyalar yaratilmoqda. Shuning bilan birga jamiyat taraqqiyotining dinamik ravishda yuksalib borishini e‘tiborga olgan holda bo‘lajak mutaxassislarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati ham kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Oliy ta‘lim muassalarida bo‘lajak pedagoglarni samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashda, shartli jihatdan olganda quyidagi yo‘nalishlarda tahlil ishlarini olib borish mumkin:

Bo‘lajak pedagoglarni biror bir yo‘nalish bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi innovatsion yondashuvlar.

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda modellashtirish metodlaridan foydalanish.

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta‘lim mazmunini innovatsiyalashtirish, axborotlashtirish va intellektuallashtirishdan foydalanish.

Bo‘lajak pedagoglarning o‘quv-biluv faoliyatini optimallashtirish negizida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish.

²⁹ O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 2-mart kungi «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni

Bo'lajak pedagoglarning ota-onalar va raxbarlarning qo'shma ijodiy va innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash³⁰

Ushbu maqolamizda ta'lim oluvchi yoshlarning o'quv faoliyati bo'lajak pedagoglarni kasbga tayyorlashda bitta fanni, xususan, maktabgacha pedagogika fani misolida mavjud interfaol metodlardan foydalanish jihatlarini qarab chiqamiz.

Bungi kunda, pedagogika universitetlaridagi o'qitish jarayonida “Innovatsiya”, “Novatsiya”, shuningdek, “Innovatsion faoliyat” hamda “Innovatsion yondashuv” kabi tushunchalarining ta'riflari, ularning kelib chiqishi hamda qo'llanishi va mazkur yo'nalishda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda ilmiy manbalar tahlilini keltirib o'tamiz.

Ta'limda innovatsiyalar muammolarini tizimli va faoliyatli yondashuv nuqtai-nazaridan nazariy-metodologik darajada respublikamiz olimlaridan R.H.Djo'raev, N.Azizxo'jaeva, N.Jumaniyozova, N.R.Yusufbekova, D.Yunusova, G.Ibragimova kabilar, MDH va xorijlik mutaxassislardan L.Ya.Kosals, N.I.Lapin, M.V.Klarin, M.S.Burgin, V.A.Slastyonin kabi olimlar ilmiy izlanishlarida aks ettirilgan.

“Innovatsiya” umumilmiy tushunchasi tizimning faoliyat yuritishida maqsadli o'zgarish sifatida ta'riflanadi, shu bilan birga, keng ma'noda bu tizimning turli sohalarida va elementlaridagi sifat yoki miqdoriy o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Jumladan, N.I.Lapin kiritilgan yangilikni yoki innovatsiyani yangi yoki allaqachon ma'lum bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj uchun yangi amaliy vositani(yangilikni) yaratish, tarqatish va foydalanishning kompleks jarayoni sifatida tavsiflaydi; shu bilan bir paytda bu uning hayotiy sikli amalga oshiriladigan ijtimoiy va moddiy sohadagi o'zgarishlarning mazkur yangilik bilan qo'shilishi jarayonidir.

Bir qancha ma'lumotlar innovatsiyalarning mohiyatini tahlil qilish uchun “pedagogik innovatsiya”, “novatsiya”, “yangilik” kabi tushunchalarning ma'nosini ochib berish muhim ahamiyatiga ega. Shu bilan birga ta'kidlash zarurki, bu atamalar

³⁰ N.Turdiyev PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2021 yil 17 may) 200-b

fanda XIX asrning oxiridan boshlab foydalanib kelinayotganiga qaramay, hozirgacha ularning aniq bir izoxi to'liq berilmagan.

Bizga ma'lumki, mavjud tizimga tashqaridan olib kirilgan yangilik yoki unda odatdagidek vujudga kelgan va rivojlanadigan yangilik novatsiya(yangilik) tarzida ta'riflanadi, shu bilan birga bu ikkala ta'rif teng qiymatli va o'zaro almashuvchidir. Chunki, novatsiya (lot. novatto-yangilanish, o'zgartirish) yoki yangilik – bu biror yangi vosita bo'lsa (yangi metod, metodika, texnologiya, usullar, harakat usullari, dastur va h.k.), u holda “innovatsiya” so'zidagi “in” old qo'shimchasi bu yangilikning (ta'lim tizimlariga) kiritilishini ko'rsatadi³¹.

N.I.Lapin fikriga ko'ra, innovatsiya – bu jamiyatning qonuniy rivojlanishi ta'sirida o'zgarib turuvchi insonning ehtiyojlarini qonotlantirish uchun yangi amaliy tajribani yaratish, tarqatish va foydalanishning kompleks jarayoni, shuningdek, ijtimoiy hamda moddiy muhitda ushbu ta'kidlangan yangilik bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yangi o'zgarishlardir. Mualliflarning fikricha, predmetli mazmunga bog'liq holda texnik innovatsiyalar ajratiladi.

Pedagogika universitetlarida bo'lajak muttaxassislarni tayyorlash jarayonida pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni o'qishning birinchi bosqichidanoq boshlash kerak. Bolalarni yangilikka intilish hissini uyg'otish, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, erkin muloqat qila olish kompetentsiyasini shakllantirish o'qishning dastlabki yillaridanoq boshlansa, o'qishning keyingi bosqichlarida pedagogik-psixologik turkum fanlarini o'qitish bo'yicha innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni, yangiliklarni mustaqil holda izlab topish, kerakli axborotni tanlab olish va amalga joriy etish ko'nikmasini shakllantirish lozim bo'ladi.

Tahlillardan shuni ko'rishimiz mumkinki, pedagogik innovatsiyalar – bu pedagogik yangiliklarni yaratish ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi, amalda qo'llanilishi, baholanishi hamda boshqarish jarayoni va

³¹ Нурова Л. А. и др. Особенности использования информационных и коммуникационных технологий на уроках татарского языка в начальной школе //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2014. – №. 8-2. – С. 110-112.

natijasidir, deb ta’riflashga imkon berdi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, pedagogika universiteti o’quvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni uchun Davlat ta’lim standartlari, o’quv rejalari hamda dasturlarni ishlab chiqishda o’zaro uzviylikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur. Buning uchun variativ o’quv dasturlari hamda darslik va o’quv qo’llanmalarni yaratishda hamda ta’lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga chiqarishda o’quv-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati kelib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 2-mart kungi «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida»gi Farmoni
2. N.Turdiyev PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2021 yil 17 may) 200-b
3. Нурова Л. А. и др. Особенности использования информационных и коммуникационных технологий на уроках татарского языка в начальной школе //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2014. – №. 8-2. – С. 110-112.
4. N.Turdiyev PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2021 yil 17 may) 200-b
5. <http://elibrary.ru/item.asp?id=22969024>